

NO`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

XOLMATOV BOQIJON KUCHKAROVICH

KOMPOZITSIYA

O`QUV QO`LLANMA

Bakalavriyatning 5140900 – Kasbiy
(5211200 – Amaliy san'at)
ta'lim yo`nalishi talabalari uchun o`quv qo`llanma

Тошкент- 2007

ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanmada naqqoshlik san'atida kompozitsiyaning tutgan o'rni, yakka va qo'sh bandli naqsh kompozitsiyalar tuzish, uy ro'zg'or buyumlariga naqsh kompozitsiya tuzish, bino interer va ekstererlariga kompozitsiya chizish va boshqa mavzular nazariy va amaliy yo'llar bilan ko'rsatiladi.

Qo'llanma pedagogika universitetlarining badiiy grafika fakulteti bakalavr yo'nalishidan: "Kompozitsiya" fani dasturi asosida yozilgan bo'lib, u shu yo'nalishdagi talabalar va kasb hunar – kolleji o'quvchilari hamda mahsus shug'illanuvchilar uchun ham mo'ljallangan.

Taqrizchilar: professor S. S. Bulatov , O'zbekiston Badiy Akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor S. A. Abdullaev.

Muallif: Xolmatov Boqijon Kuchkarovich

ANNOTATSIYA

V dannom uchebnom posobii pokazo'vaetsya rol kompozitsii v iskusstve rospisi po derevu v sostavlenii odno i dvux stebelno'x ornamentalno'x kompozitsiyax v bo'tovo'x izdeliyax, risovanie ornamentalno'x kompozitsiy dlya intererov, ekstererov i drugoe.

Posobie napisano po programme «Kompozitsiya» po napravleniyu bakalavre dlya studentov xudojestvenno – graficheskix fakultetov pedagogicheskix universitetov i rasschitano na uchahixsya professionalno'x remeslenno'x kolledjey i dopolnitelno zanimayuhixsya.

Retsenzento': Professor S. S. Bulatov, akademik Xudojestvennoe Akademii Uzbekistana, deyatel iskusstv Uzbekskoe Respubliki, professor S. A. Abdullaev

Avtor: Xolmatov Bakidjan Kuchkarovich

THE SUMMARY

In the given manual the role of a composition in art of a list on a tree in drawing up one and two stebelno'x ornamental compositions in household products, drawing of ornamental compositions for interiors, ex-terriers and another shows.

The Grant{Manual} is written under the program "Composition" in a direction the bachelor for students artly - graphic faculties of pedagogical universities and calculated on pupils of professional craft colleges and in addition engaged.

Reviewers: Professor S.S.Bulatov, the academician Art Academies of Uzbekistan, the figure of arts Uzbek Republics, professor S.A.Abdullaev

The Author: Xolmatov Bakidjan Quchqarovich

Mundarija

So'z boshi.....

Naqqoshlik san'atida kompozitsiyaning tutgan o`rni.....	
Naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari.....	
Naqsh turlari va uning o`ziga xosligi	
Turli geometrik shakllarga naqsh kompozitsiyalarini chizish....	
Xalq ustalari ijodidan nusxa ko`chirish. "Namoyon" naqshi.....	
Yakka va qo`sh bandli naqsh kompozitsiyalarini tuzish.....	
Uy – ro`zg`or buyumlariga naqsh kompozitsiyasi tuzish.....	
Bino interer va ekstererlariga kompozitsiya chizish.....	
Mavzular bo`yicha testlar.....	
Atamalarning izohli lug`ati.....	
Naqsh kompozitsiyalaridan namunalar.....	
Adabiyotlar ro`yxati.....	
Soderjanie	
Vvedenie	
Rol kompozitsii v iskusstve rospisi po derevu.....	
Osnovno`e pravila sostavleniya ornamentalno`x kompozitsiy.....	
Vido` ornamenta i ix svoeobrazie.....	
Risovanie ornamentalno`x kompozitsiy ko razlichno`m formam geometricheskix figur	
Kopirovanie rabot narodno`x masterov. Ornament «Namoyon».....	
Sostavlenie odno i dvux stebelno`x ornamentalno`x kompozitsiy.....	
Sostavlenie ornamentalno`x kompozitsiy v bo`tovo`x izdeliyax.....	
Risovanie kompozitsii dlya zdaniy, intererov i ekstererov.....	
Testo` po tekstu.....	
Obraztso` ornamentov kompozitsii.....	
Spisok literaturo`.....	

The maintenance{contents}

Introduction.....	
Role of a composition in art of a list on a tree	
Key rules of drawing up of ornamental compositions	
Kinds of an ornament and their originality	
Drawing of ornamental compositions to various forms of geometrical figures.....	
Copying of works of national masters. An ornament «Namoyon »	
Drawing up one and two ornamental compositions	
Drawing up of ornamental compositions in household products	
Drawing of a composition for buildings, interiors and ex-terriers	
Tests under the text	
Samples of ornaments of a composition	
The list of the literature	

Soʻz boshi

Oʻzbek xalq amaliy bezak san'atining tarkibiy qismini tashkil etuvchi naqqoshlik oʻzining qadimiyligi, goʻzalligi bilan kishilar qalbidan chuqur joy olgan. Naqsh elementlarining oʻzaro joylashuvidan hosil boʻluvchi naqsh kompozitsiyalari amaliy san'at asarlarigi chiroy bagʻishlaydi. Naqqoshlikda kompozitsiya tuzishning oʻziga hos usullari mavjud boʻlib, ushbu naqsh bezaklari ustalarning goʻzallik xaqidagi tasavvurlarini namoyon etadi.

Xalq amaliy san'ati asarlari nafaqat bugunimiz, balki kelajak avlodlarimizning ham boy ma'naviy merosi va qadriyatlari hamdir. Yoshlarimizni har tamonlama etuk, xozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan qilib tarbiyalash bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Hozirda bu sohada yangi oʻquv rejalari, dasturlar, oʻquv qoʻllanma va darsliklarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur oʻkuv metodik koʻllanmani xam shular qatoriga kiradi deb bilamiz. Qoʻllanma “Kompozitsiya ” Fani uchun chop etilgan dastur mavzulari asosida yozildi.

Qoʻllanma mavzularini oʻzlashtirib borish barobarida talabalar tevarak – atrofdagi, tabiatda mavjud boʻlgan shakllarga qoʻshimcha ishlov berish, ya'ni stilizatsiyalash orqali turli – tuman naqsh elementlarni chizish, ana shu naqsh elementlaridan kompozitsiya tuzishni oʻrganib boradilar. Ma'lumki xar bir naqsh namunasi oʻziga xos naqsh elementlari yigʻindisidan iborat. Talabalar mashgʻulotlar jarayonida ana shunday naqsh elementlarining namunalari bilan yaqindan tanishadilar, undan namunalar chizishni mashq qiladilar. Qoʻllanma asosan talabalarga naqsh elementlari va ulardan kompozitsiyalar tuzish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, amaliy ishlar orqali mustaxkamlanib boriladi.

Talabalar eng sodda naqsh elementlarini oʻzaro bogʻlash, dastlabki naqsh kompozitsiyalarini chizar ekanlar, ular kompozitsiyaning oʻziga hos qonun – qoidalarining oʻrganib boradilar. Bu ishni amalga oshirish uchun talabalar koʻpgina naqsh elementlarini yodda saqlashlari kerak va yoʻl – yoʻlakay kerakli oʻzgarishlarni kiritib bora oladigan boʻlmoqlari lozim.

Kompozitsiya ishlash jarayonida talabalar quyidagilarni puxta oʻzlashtirib olishlari zarur:

Atrof – muxit, tabiatdagi mavjud boʻlgan tabiiy shakllarni qayta ishlash, ya'ni stilizatsiyalash yoʻllarini bilishlari va undan samarali foydalana olishlari zarur:

Berilgan naqsh elementlari yoki namunalari asosida yangi naqsh kompozitsiyasini chiza olishlari:

Mustaqil ravishda yangi naqsh kompozitsiyasini tuza bilishlari kerak boʻladi.

Yuqorida koʻrsatilib oʻtilgan vazifalarni puxta oʻzlashtirilishi talabalarning kelajakda bilimli, kasb – hunar egasi boʻlib etishishlarida katta ahamiyatga ega.

Naqqoshlik san'atida kompozitsiyaning tutgan o'rnini.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining turlaridan biri bo'lgan naqqoshlik halqimizning kundalik hayotidan yanada chuqurroq o'rin egallab kelmoqda. Naqqoshlik san'ati ham boshqa san'at turlari kabi o'zining kompozitsiya qonuniyatlariga, bajarilish usullariga va albatta ranglar garmoniyasining o'ziga hos yo'naltirilishiga ega (rasm)

Naqqoshlikda ashyolarga badiiy ishlov berish va binolarning milliy bezak ishlarida ko'llanilunchi naqsh kompozitsiyalarini o'ziga xos bog'liqligi va umumiyliigi mavjud.

Naqshdagi elementlar qayta ishlangan o'simlik xayvonot dunyosining eng sodda stillashtirilgan xolatidagi ko'rinishlari bo'lib, naqsh kompozitsiyalarining asosiy qismlarini tashkil etadi. (rasm)

Albatta naqsh kompozitsiyalarida rang tuslarining xam alohida o'rnini bor. Naqqoshlikda naqsh elementlari, bezaklar va turli tuman shakllar, kompozitsiya konuniyatlaridan tashqari uni bo'yahda qo'llaniladigan bo'yoq turlari va ularning o'ziga hos xususiyatlari. rang tuslari, rang koloriti. ranglarning xamoxangligi va shu kabidar muxim axamitga ega. Agarda biz xalk xunarmand ustlari tomonidan ishlangan naqsh namunalarini kuzatadigan bo'lsak, ularning u yoki bu rang tuslari ta'siriga. ya'ni rang koloritiga bo'ysundirilganligini ko'ramiz, Shunga ko'ra jigar rang, xavo rang, yashil rang va shu kabi ranglar muhitiga o'ralgan naqsh va naqsh kompozitsiyalari yaratiladi.

Naqsh kompozitsiyalarini bo'yashda bir rangning bir necha hil tuslari qo'llaniladi, bunda oq bo'yoq asosiy o'rinni egallaydi. Akvarel bo'yoqlari bilan qog'ozga ishlangan naqshlarni bo'yayotganda esa suv rangni ochlashtiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega.

Shuni esda tutish lozimki, ayrim bo'yoqlarni bir-birlari aralashtirishda ba'zi bir - extiyot choradarini ko'rish lozim bo'ladi. Chunki to'q rang tusiga ega bo'lgan bo'yoq tarkibiga boshqa rang aralashtirilsa uning tusi ham to'qlashadi. Bu esa o'z navbatida rang tusining darajasiga ta'sir etadi. Ayniqsa moy bo'yoqlarida ishlangan naqshlarning tuslari keyinchalik tuqlashib, qorayib ketishiga moyil bo'ladi. Agarda naqshlar uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan bo'lsa ularni iloji boricha ochiq rang tuslarda bo'yash tavsiya etiladi.

Ranglar va ularning tuslari badiiy naqsh koloritni belgilashda katta o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra rang muxitini biror bir aniq rang koloritiga buysundiriladi. Masalan jigar pang, xavo rang, sarg'ish yoki qizil ranglar muhitida ishlangan naqsh kompozitsiyalari shular jumlasidandir.

Naqsh kompozitsiyalari bo'lak (rapport) lar dan tashkil topishi bilan birgalikda ritmik takrorlanib keladi. Naqqosh ustalar uz ijodlarida islmiy. girix va murakkab turlaridagi naqsh kompozitsiyalaridan keng foydalanadilar.

Naqqoshlik san'atining o'ziga hos bir necha maktablari mavjud bo'lib, ular, Toshkent, Fargona, Xorazm, Samarkand va Buxoro singari yunalishlariga ega.

Bu maktablar bir-biridan elementlari bilan, rang tuslari va naqsh kompozitsiyalari, tuzulishining o'ziga hosligi bilan ajralib turadi.

Naqsh va naqsh elementlari nomlanishi alohida diqqatga sazovor bo'lib, ular tabiiy o'simlik va predmetlar, usta va ularning yaratilgan joylarining nomlari bilan ham ataladi. Ulardan: novda, lola, gul qalampir, shobarg, madoxil, oygul, bofta, se barg,

turunj, «mashxadiy», «arabiy», «isfaxoniy» va xokazolar. (rasm). Naqsh kompozitsiyalari tuzishda kompanovka, simmetriya, assimetriya, ritmik takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiylik chiroylilik va ranglarning uygunligi kabi koidalarga rioyat qilinadi.

Kompanovka (joylashtirish)- naqsh kompozitsiyasini yuza sirtiga to`g`ri joylashtirish

Ritm- naqsh elementlarini malum masofada bir tekisda davriy takrorlanib kelishi (rasm)

Stilizatsiya (qayta ishlash) - tabiatdagi o`simlik xayvonot dunyosi va turli jismlarni eng soda xolatida tasvirlash badiiy usulda umumlashtirish(rasm)

Assimetriya - kompozitsiyada simmetrii muvozanatning buzilishi (rasm)

Simmetriya - grekcha so`zdan olingan bo`lib o`lchovlarning bir biriga munosibligi(rasm)

Naqqoshlikda kompozitsiya tuzish muhim ahamiyatga ega bo`lib, u o`zining bir necha qonun qoidalariga binoan tuziladi.

davriy takrorlanish (ritm)

muttanosiblik (proportsiya)

simmetriya va markaz topish

stilizatsiya (kayta ishlash)

eng chiroli uzviylik (garmoniya)

rang uygunligi va uzaro yorokinlik (kontras)

Naqqoshlikda kompozitsiyani o`z o`rni va ularni tuzish bosqichlari mavjud. Xar bir tuzilgan kompozitsiya mazmuni, ramziy ma'nolari ma'lum bir shakllarga egaligi va ranglar jilosi bilan ajralib turadi (rasm).

Naqsh kompozitsiyasini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?

naqsh elementlarini o`zaro nisbatini saqlash;

tanlangan shaklga mos naqsh kompozitsiyasini tuzish;

- tanob shaklini asosiy o`rinda bo`rttirib tasvirlash;

- kompozitsiyadagi gul, novda, barg, bofta kabi elementlarni novda xarakatiga mos ravishda tasvirlash;

Kompozitsiya naqqoshlik san'atida asosiy o`rinni egallaydi. Naqshning mazmuni, ma'no va mohiyatlarini bir so`z bilan aytganda go`zalligi kompozitsiyaning qanday va qay yusinda chizilganligiga bog`liq.

Tayanch tushunchalar.

Kompozitsiya, stillashtirilgan, akvarel, rapport, mashxadiy, isfoxoniy, proportsiya, garmoniya.

Savollar.

Naqqoshlikda kompozitsiyaning tutgan o`rni.

Naqqoshlikda rangshunoslikning ahamiyati.

Naqsh turlari haqida tushuncha.

Naqqoshlik maktablari haqida nimalarni bilasiz?

Naqsh tuzulishining qonuniyatlari.

Naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari

Ijodkorlik insoniyat ongining mo`jizasidir. U kishilar ruhiyatiga ta'sir etib, ma'naviy olamini boyitadi. Usta naqqosh biron bir naqsh kompozitsiyasini yaratar ekan, albatta tabiyatdan ilhom oladi va undagi mavjud go`zallikni yanada jozibalibroq aks ettirishga harakat qiladi.

Halq amaliy bezak san'atining qaysi bir turi bo`lmasin uning zaminida naqsh elementlari "Kompozitsiya" yotadi. Mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun qoidalarga amal qilingan holda kompozitsiya tuzishning o`ziga hos usullari bor. Oddiy bodom yoki qalampir elementlaridan naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi va boshqa shu kabi halq amaliy san'ati turlarida o`ziga hos naqsh namunalarini yaratish mumkin(rasm).

Kompozitsiya – lotincha so`z bo`lib, joylashtirish, qurish, tuzish degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh namunasiga ko`ra uning elementlari qog`oz yuzasida bir-biriga bog`liq holda joylashtirilib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi.

Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda, avval ko`plab homaki ishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o`rmini almashtirish, qo`shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilar ham muhim ahamiyatga ega. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyada bir butunlikni, element, shakl, ranglarning takrorlanishi va ular o`rtasidagi o`zaro bog`liklik kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo`lgan rang tuslarining ma'lum bir koloritga bo`ysundurishdan iborat.

Kompozitsiya tuzishda simmetriya, ritm, markaz topish stilizatsiya, muvozanat kabi qonuniyatlarga amal qilinadi. Shuningdek, naqsh namunalarini tuzishda yana kompozitsiyaning quyidagi asosiy qonuniyatlariga rioya qilish kerak.

- chiziladigan naqsh kompozitsiyasini shakl, o`lcham va taqsimlarini mo`ljalga olish.
- kompozitsiyaning yakka yoki qo`sh banddan iborat bo`lishligini nazarda tutgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish-
- kompozitsiyaga novda, barg, gul, shobarg va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish.
- naqsh bandini bofta, shukufta elementlari bilan bog`lab boyitish
- kompozitsiyaning asosiy shakli (ramkasini) umumlashtirib va shu naqshni nomlash

Simmetrik joylashuvi va ranglar muttanosibligini saqlash ular mustaqil naqsh chizish jarayonida uning qismlari o`rtasidagi bog`liqlik. Naqsh elementlari va shakllarning o`q chizig`iga nisbatan teng ravishda joylashuvi, rang tuslaring bir – biriga muvofiq ravishda naqsh sirtiga yoyilishi, turli gullar, novdalar va shu kabi shakllarning uzviy ritmik jihatdan bog`lanishi va shu kabilardan iboratdir.

Talabalarning tajribalari va badiiy ijodiy qobiliyatlarini yanada o`stirish maqsadida ularga ko`proq mustaqil badiiy naqshlar chizdirish tavsiya etiladi. Mustaqil naqsh tuzish mashg`ulotlaridan oldin talabalar halq ustalari tamonidan bajarilgan naqsh namunalarini kuzatib, o`rganadilar u yoki bu naqsh

namunalaridagi o'xshash va farq qiluvchi jihatlar, o'zgacha tuzilishdagi naqsh elementlarini izlab tobadilar va kerak bo'lgan taqdirda ulardan namunalar ko'chiradilar. Shuningdek ular muzeylar, uylar va mamuriy binolarni ichki va tashqi tamonlarini bezatishda ko'llanilgan naqsh turlari bilan ham tanishib boradilar va namunalar ko'chiradilar.

Naqsh elementlari bilan tanishtiruv mashg'ulotlaridan tabiat qo'yniga chiqib mashg'ulotlarda o'rgangan nazariy hamda amaliy bilim, malakalari asosida o'simliklar, hayvonot dunyosini kuzatadilar. Stilizatsiyalashtirish orqali shakllarning badiiy tasvirlarini hosil qilish bilan bevosita shug'illanadilar.

Talabalarga mahsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora fotosuratlardan foydalanish orqali tushunchalar berish ham yaxshi natija beradi.

Mustaqil naqsh kompozitsiyalarini tuzish orqali tabiat go'zalligini chuqurroq his etib, badiiy didlarini rivojlantirib boradilar. Ularga simmetriya va assimetriya, ritm kabi qoidalar haqida tushunchalar berib boriladi va ular amaliy ishlar jarayonida yanada mustahkamlanadi.

Simmetriya-tenglik degan ma'noni anglatadi. Elementlarining bir o'q chiziq markazi atrofida bir hil o'lchamda joylashib, bir butun va tugal ko'rinishida bo'lishini ta'minlaydi. Naqqoshlikda elementlarining bo'laklari "Rapport", va bo'linish joylarini "Taqsim" deyiladi.

Yo'l ichiga chizilgan xoshiya naqshlari simmetrik rapport tarzida davriy (ya'ni ritmik) takrorlanib keladi. Badiiy naqqoshlikda esa ritm naqsh elementlarining ma'lum tartib va oralig'da uzluksiz takrorlanib kelishini bildiradi.

Assimetriya qonuni esa simmetriyaning aynan teskarisi bo'lib, kompozitsiyaning muvozanat qonuniga amal qilinmay naqsh elementlaridagi dinamik harakatni ifodalaydi. Bunda naqsh elementlari o'q chizig'i va markaz kabi shartli belgilariga rioya qilinmagan holda joylashtiriladi.

Asimmetrik naqshlar ko'proq navo qalam, vassa, tokcha, mavzuli pannolardan: majnuntol, anor guli, guldasta kompozitsiyalarida uchraydi(rasm). Mustaqil ijod orqali talabalar yangi naqsh namunalarini yaratar ekanlar, ranglar jozibasi va yorqinligini ham alohida his eta boshlaydilar. Chunki ranglar asosan naqshning nafis va nozikligini ko'rsatib beradi. Naqsh namunalarida yuza va shakl oralig'iga berilayotgan ranglar soni qanchalik ko'b bo'lsa, kompozitsiya yanada chiroyli va go'zallashib boradi.

Tayanch tushunchalar.

Kompozitsiya, eskiz, simmetriya, ritm, assimetriya, rapport

Savollar.

1. Kompozitsiya so'zi nimani anglatadi?
2. Mustaqil naqsh tuzishda qanday qonun-qoidaga amal qilish kerak?
3. Simmetrik joylashuv va ranglar muttanosibligi deganda nimani tushinasiz?

4. Simmetriya va assimetriya deb nimaga aytiladi ?

Naqsh turlari va uning o'ziga xosligi

Naqsh kompozitsiyalari o'zini ramziy ma'nolari, tabiiy shakl va ranglar go'zalligi bilan xalq amaliy san'ati asarlariga joziba va ko'rk bag'ishlaydi.

Naqshlar bino, uy ro'zg'or va boshqa turdagi jixozlarga ishlanshidan qat'iy nazar, o'ziga xos uslub va mazmunga ega bo'ladi. (rasm)

Naqsh so'zi arabcha – tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U tabiatda uchrovchi o'simlik, hayvonot dunyosi va turli geometrik shakllarning eng soda ko'rinishlarida takrorlanib keluvchi tasviri ya'ni bezakdir.

O'zbek halq amaliy san'atining barcha turlari, jumladan naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kabilar uchun naqsh elementlarining chizilishi o'xshash ko'rinsada, bajarilish texnologiyasi va pardozlash usullari turlichadir. Masalan: Ganchkorlik va yog'och o'ymakorligida naqshlar o'yib, naqqoshlikda chizib, kashtachilikda chok yordamida, misgarlikda zarb bilan, zardo'zlikda qadab va shunga o'xshash usullar yordamida naqsh solinadi.(rasm) Naqsh o'simliksimon geometrik, murakkab deb ataluvchi turlarga bo'linadi:

1) O'simliksimon (islamiy, yuguruvchi) naqshlar asosan gul novda kurtak, barg, guncha kabi elementlarning o'zaro ma'lum tartibda bog'lanib tuzilishidir.

O'simliksimon naqshlar yaka (bir) va qo'sh (ikki) bandli novda ko'rinishlarida ishlanadi. Ularga misol qilib: ruta xoshiya, raftor, namoyon, mehrob, turunj, munabbat va xokozo. kabi naqsh namunalarini olish mumkin. (rasm)

2) Girih (handasiy) chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to'g'ri chiziqlarning o'zaro kesishuvi – natijasida geometrik shakllarni hosil qiladi.

Girih naqshlari islamiy naqsh turlari singari ma'lum bo'laklardan iborat bo'lib, alohida tuzilishlariga ega (rasm).

3) Guli girih (aralash) – murakkab naqshlar, o'simliksimon va geometrik naqsh turlarining o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. (rasm).

Hondosiy naqsh kompozitsiyalari, girihlarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda girihkor, kata ustalar deb atashgan. Geometrik naqqoshlarni gumbaz mehrob va turli shokllarda qo'llab ishlash ancha murakkab ish sanaladi.

Yangi naqsh kompozitsiyalarini odatda naqqosh ustalar chizib beriganlar. Ular halq amaliy san'ati turlari uchun chiziluvchi naqshlarning kompozitsion tuzilishi, chizilishi, o'yish, tikish usullari va pardoz berishi qoidalarini yaxshi bilganlar Naqqosh ustalar bir vaqtning o'zida bir necha hunar turlarini ham egallab organlar. Masalan: Toshkentlik pardori usta Olimjon Qosimjonov, naqqosh Jolil Hakimovlar yog'och o'ymakorligini, Xivalik Abdulla Boltaev naqqoshlik, koshimbazlik misgarlik kabi xunar turlarida ham erkin ijod qila olganlar (rasm).

Naqsh kompozitsiyalari mazmunini atlasda rang turlari va naqsh elementlarining ramziy ma'nolari o'rganib borish zarur. Ramziy so'zi arabcha «ishora qilmoq» so'zini anglatadi.

Naqsh ranglari va elementlarining ramziy ma'nosi: Ramziylik olam va odam ruxiyati, tabiat voqelik, hayot falsafasini jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir. Naqqoshlik ganyakorlik va yog'och o'ymakorligini san'atlarida turli

shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy- falsafiy ma'nolari ayniqsa keng ifodalanadi.

Yashil rang – ona tabiat ramzi, ko`k rang – moviy osmon, sariq rang – muqqaddaslik, qora rang – matonat, oq rang tozalik, baht va omad ramzi, barg baxorgi uyg`onish, atirgul – go`zallik ramzi, olma muxabbat ramzi, anor ezgulik, to`kin sochinlik.

Ma'lumki har bir naqsh namunasi o`ziga xos naqsh elementlariga asos qilinib, tabiatda uchrovchi o`simlik dunyosi, hayvonot olami va turli geometrik shakllarning eng soda ko`rinishlaridagi «stillashtirilgan» - holatlari olinadi. – Bunda tanlangan shakl ko`rishish naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo`shishi mumkin bo`lgan bezak shakliga keltiriladi. (rasm)

Naqshda elementlarning o`zaro birikib borishi, muttanosib bog`lanishlari naqshning butun bir yaxlitligini tashkil etadi. Naqsh chishishni o`rganishda dastlab quyidagi shakllar chizib o`rganiladi.

Barglar, gullar, novdalar, bog`lam va sirtmoq, tanob, marg`ula va kurtak, madoxil, gajak va jingalak bafta va shukufta. (rasm)

Naqsh chizishda ko`proq barg tasvirlaridan foydalaniladi.

Barg islimiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli, nozik, nafis, egiluvchan, silliq ko`rishishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurma, bodom, sambit, atrgul, chinor, uzum vash u kabilarning barglarini stilizatsiyalashtirib, naqsh kompozitsiyasini tuzihda qadmdan samarali foydalanib kelganlar. (rasm)

Bafta islimiy va murakkab naqshlar elementi. Naqshdagi patnus tanob, mehrob, savat ko`rinishidagi ramkalarni yurak shakldagi elementlari bilan bog`laydi. Bofta naqshlarda bog`lovchi elementlar tarkibiga kiradi. Bafta islimiy rufta va girih xoshiya naqshlarining ham o`ziga xos elementlaridan biridir. (rasm)

Shkufta – islimiy naqsh elemementi, qisqacha shufta deb ham ftaladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak – gajak ko`rinishlarida o`zaro bog`laydi. (rasm)

Gullar – islimiy naqsh elementi bo`lib, naqshlarga targ`il pardozi berilganidan so`ng yanada ko`rkam va husn bag`ishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qsmilaiga joylashtiriladi. Gullarning ham behsob turlari mavjud bo`lib. O`ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko`rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, ko`vachagul, karnaygul, safargul, nargizgul, tirnoq gul va boshqa gul turlari kiradi. (rasm).

Novda – o`smliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. Gul barg, g`uncha, shobarg va boshqa elementlarni o`ziga bog`lab biriktirib to`ldiradi. Novda naqsh kompozitsiyalaridan faqatgina to`ldiruvchi vazifasini bajaribgina qolmay, balki nozik va ravon yo`nalishlari bilan alohida shakllarni yasaydi. Tabiatda barcha daraxt va o`smliklar pastdan tepaga o`sishlari sababli, novda elementlari ham iloji boricha bir tomonlama harakat ettiriladi. (rasm)

Bog`lam va sirtmoqlar – islimiy naqsh elementlaridir. Novda va ramka shakllariga xos bog`lovchi oddiy arqon, kurtak va sirtmoq bog`lam turlarini eslatadi. (rasm)

Tanob – naqsh namunalaridagi asosiy shakl yo`llarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mehrob, modohil, bodom, qalampir, gardish vash u kabilar bilan ataladi. Tanob, bofta, shkufta, bog`lam elementlari bilan bog`lanadi. (rasm)

Marg`ula – ayrim novda va tanob shakllarining tugallanishini bildiruvchi qo`sh chiziqli gajak, marg`ula naqsh kompozitsiyalarida kurtak elementlari bilan birin ketin gohida o`rindosh sifatida ham uchraydi. (rasm)

Kurtak – asosan bodom, qalamtir, tirnoq, ko`rinishlariga ega. Marg`ula va kurtak elementlari novda, tanob, yasovchi ko`rinishlarini boyitadi. (rasm)

Madoxil – islmiy naqsh elementi madoxil lola, tumor, uchbarg ko`rinishlarini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi. Madoxil mehrob namoyon naqshlarining yuqori qismlariga xos elementdir. (rasm)

Gajak va jingalak – islmiy naqsh elementi. Tabiatda uchraydigan uzun, karnaygul, pechak o`t novdalarini stilizatsiyalashtirilgan holdagi ko`rinishidir. Gajak va jingalak elementlarini nomoyon, guldasta va islmiy naqsh birikmalarida uchraydi. (rasm).

Tayanch tushunchalar.

Raftar, turunj, munabbat, ruta ramz, marg`ulon.

Savollar.

Halq amaliy san'atining qanday turlari mavjud, ularning qadimiy nomlarini bilasizmi?

Islmiy so`zining ma'nosi?

Girix so`zining ma'nosi?

Murakkab so`zning ma'nosi?

Ramz so`zi nimani anglatadi?

Naqsh elementlarini namunasini ayting.

Turli geometrik shakllarga naqsh kompozitsiyalarini chizish.

Geometrik naqsh kompozitsiyalari o`zbek xalq amaliy bezak san'atida qadimdan qo`llanilib kelindi. Tarixiy obidalarimizning aksari bezaklari ajoyib girih, naqshlari shirft bilan bezatilgan Naqqoshlik, ganch va yog`och o`ymakorligiga oid bezak namunalarida girih, naqshlarining oddiy, murakkab, zanjira panjara kabi turlarini uchratish mumkin.

Girih kompozitsiyalarini tuzish murakkab ijod maxsuli bo`lib, u kishidan geometriya, chizmachilik xisob kitob fanlarni mukammal bilishlikni talab etadi. Girih chizish murakkab bo`lganligi sababli uni hamma ustalar ham chiza olmaganlar.

Girih kompozitsiyalarini chizishning ham o`z qonun-qoidalari bor. Girih kompozitsiyalarini qadimda ustalar turli qabariq sirtlari ham osongina qo`llay olganlar.

Geometrik naqshlarni echimlari va ularning yangi nusxlarini tuzish usullari qadimda yozma adabiyotlarda kam yoritilgan. Aniqrog`i girih naqqoshlarini tuzish murakkabligi sababli nusxalar orqali o`tib kelavergan.

Girih naqshlarni tuzuvchi ustalarni girihko, katta ustalar deb atashgan. Atoqli xalq ustalaridan usta Shirin Murodov, Toshpo`lat Arislonqulov, Abdulla Boltaevlar o`z

ijodiy izlanshlari natijasida geometrik naqshlarining ko'pdan-ko'p nusxalarini yaratganlar. Ayniqsa, akademik usta Shirin Murodov yangi girih kompozitsiyalarini osonlikcha tuzib, o'z o'rnida ustalik bilan qo'llay olgan. (rasm) Girih naqshlarini tuzish islomiy naqsh kompozitsiyalarini tuzishdan ancha farq qiladi. Gulli girih murakkab deb ataluvchi naqsh turi. Gulli girih islomiy va geometrik naqsh elementlarining o'zaro savatsimon aralash to'qilishidan iborat.

Odatda geometrik naqshlarni tuzilgach, shakl yuzalarini islomiy naqsh kompozitsiyalari bilan to'ydirilsa aralash-murakkab deb ataluvchi naqsh kompozitsiyalari hosil bo'ladi.

Murakkab naqshlarda shakl yasovchi yo'l chiziqlari naqshning asosini tashkil etib, islomiy elementlar esa shakl oralarini to'ldiradi. (rasm)

Girih – forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to'g'ri chiziqlarning o'zaro kesishuvi natijasidagi geometrik shakllarni hosil qiladi. (rasm) Girihlar ma'lum turtib va qoidalar, hisob handasa va chizmachilik fanlariga asosan chiziladi.

Geometrik naqshlarning yakka, qo'sh va bir necha yo'lli ko'rinishlari mavjud bo'lib, shakl bo'laklari simmetrik joylashuvi taqsim-(rapport)larga ega.

Girih naqshi kompozitsiyalarini tuzishidan uch, to'rt, besht, olti va shu kabi ko'pburchakli geometrik shakllar hamda teng yonli uchburchaklar, romb, trapezitsiya, teng tomonli uchburchak va boshqa geometrik shakllar hosil bo'ladi. (rasm)

Geometrik naqsh elementlarini o'zaro tutashuvlaridan hosil bo'lgan elementlarni kompozitsion joylashtirish orqali istalgancha yangi girihlar tuziladi. (rasm) geometrik naqshlarni ham islomiy naqshlar singari ma'lum bo'lak-taqsimlar yordamida chizib qo'yatiriladi. Girih naqsh elementlarini quyidagicha kompozitsiyalash asosida tuzish mumkin:

Uchburchaklarni o'zaro kombinatsiyalash. (rasm)

To'rtburchaklarni o'zaro kombinatsiyalash. (rasm)

Muntazam ko'pburchaklarni o'zaro kombinatsiyalash. (rasm)

Egri chiziqlarni o'zaro kombinatsiyalash. (rasm)

Girihni shakl qirralariga, rahlariga qarab nomlanadi. Agar girih naqshi besh qirrali yulduzdan iborat bo'lsa, besh rahli, olti yoki sakkiz qirrali shakllarga ega bo'lsa – olti, sakkiz rahli girihlar deb nomlanadi.

Geometrik naqshlarning echimlarini topish va yangi usullarini yaratish ishlari tinimsiz davom etib kelmoqda.

Girih kompozitsiyalari panjara – to'siq degan ma'noni ham anglatadi. Girih kompozitsiyasini naqqoshlikdagi singari ganch va yog'och o'y makorligi hunarlarida ham o'ziga xos ravshda ishlanadi.

Qadimda oyna to'siqlari, xonalarning havosini o'zgartirishga mo'ljallangan eshiklar tepasidagi tuynuklar (tobadonlar) ganch va yog'och qish ko'nlari panjarali to'siq, yuzalariga shaffof qog'ozlari yopishtirilgan (rasm). Yog'och o'y makorlikda panjara to'siqlari asosan mix va elim ishlatilmay pishiq va puxta bajarilgan. Panjara shaklidagi sodda niriqlar to'rt kataklaridan iborat. Chiziqlari yordamida oson chiziladi. Panjara shaklidagi girihlarning behisob turlari mavjuddir. (rasm). Panjara girihlari yakka band chiziqlar yordamida chizilib, shu chiziqlar bo'yicha qo'sh bandli ko'rinishlari hosil qilinadi. Bunda, girih naqshlarning chiziq yo'llarini o'ng va chap tomonlariga parallel chiziqlar chiziladi. So'ngra, yakka bandli

o`rtadagi yordamchi chiziqlar o`chirib tashlanad. Girih shakllarini ko`p bandli ko`rinigshlarda chizishda ularning ichki yoki tashqi tomonlariga chizib ishlangan chiziqlar naqshning bog`lanishi va muvozanatini buzadi.

Tayanch tushinchalar.

Girih, panjara, tobadon, rah, chigal, zanjira.

Savollar.

Girih so`zi nimani anglatadi?

Xandasaviy naqsh deb nimaga aytiladi.

Murakkab naqshi qanday naqsh?

Tobadon so`zining ma'nosini bilasizmi?

Rah deb nimaga aytiladi?

Xalq ustalari ijodidan nusxa ko`chirish.

“Namoyon” naqshi

Mustaqil naqsh kompozitsiyalarini tuzishda xalq ustalari ijodidan nusxa ko`chirish ularni tuzilishi, ranglanishi, pardozi va kompozitsiyaning qaysi naqqoshlik maktabiga xos ekanligini o`rganish muhim ahamiyatga ega. Naqsh kompozitsiyalaridan nusxa ko`chirishda namunaning aynan o`zini yoki kerakli kattalikdagi ko`rinishini xitoy qog`oziga chizib olinadi va undan naqsh axtasini tayyorlanadi. Xalq ustalari ijodiga oid naqsh nushalarini aynan o`zini ishlangach kompozitsiya ko`rinishini boshqa holatlarini tasavvur etib yangi shakl, mazmun va rang koloritiga hos namunalarni yaratish mumkin. Bunda talabalarning ijodkorlik qobiliyatlari muhimdir.

Xalq ustalari ijod qilib kelayotgan naqsh kompozitsiyalarining bir necha turlari va ularning o`ziga hos nomlari bor. Naqsh kompozitsiyalarining ruta, chorsi, aylana, mexrob, turunj, davra turunj, girix, murakkab kabi turlaridan biri namoyon naqshidir.

O`z naqsh maktabi an'analrini davom ettirib ijod qilayotgan xalq ustalari, bezakli namoyon naqsh kompozitsiyalarini o`zgacha nafosat bilan ishlaydilar.

Namoyon – so`zi forscha ko`rinish, tugallangan degan ma'noni bildiradi. Nomoyon kompozitsiyalarida yuqoriga o`sayotgan o`simliklar dunyosining go`zal tasvirlari aks ettiriladi. Namoyon kompozitsiyalari tasvirida ko`za yoki gul tuvakda barh urib o`sayotgan gullar, majnuntol, anor, uzum kabi stillashtirilgan o`simliklarning elementlari diqqatga sazovar.(rasm)

Milliy binolarning mehmonxona va ayvonlarga islmiy namoyon kompozitsiyalari xamda geometrik – aralash naqshlar ishlanadi. Islmiy va geometrik naqsh kompozitsiyalari yakka va qo`sh band novdalar ishtirokida tuziladi. Namoyon naqsh kompozitsiyalarining nushalarini quyidagi tartibda chiziladi:

- kompozitsiyaning yuza o'lchamlari olinadi.
- ma'lum o'lchamning teng yarim qismiga kompozitsiyaning asosiy shakli chiziladi.
- kompozitsiyaning tanob elementi chiziladi
- kompozitsiyaning gul, novda, barg, bofta, shobarg va boshqa naqsh elementlari nusxa shakllari chiziladi. (rasm)

Namoyon xech qaerga ulanib chizilmaydigan mustaqil naqsh kompozitsiyasidir. U murakkab naqshlar turiga kiradi. Namoyon atrofiga chiziluvchi xoshiya naqshlari kompozitsiyani yanada badiiy va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi. Namoyon o'simliksimon naqsh kompozitsiyasini aks ettirsa, unda tanob asosiy novda va gul elementlari to'ldiruvchi rolini o'ynaydi. Murakkab geometrik usulda tuzilgan namoyon kompozitsiyalari esa grih to'rlari shakl yasovchi islimiy elementlar to'ldiruvchi vazifasini o'taydi. Namoyon naqshlarini simmetrik va assimetrik ko'rinishlarda chizish mumkin.(rasm)

Xar bir naqqoshlik maktabining namoyon kompozitsiyalari o'zining uslubiy yo'nalishlariga ega Xorazm namoyon kompozitsiyalarida o'simliksimon novda tuzilishlari prujinasimon gul va barg elementlarisiz ma'lum bir tartibda xarakatlanadi. Toshkent uslubida namoyon kompozitsiyalari o'ziga hos islimiy elementlar zichligida chiziladi. Farg'ona usulidagi namoyon kompozitsiyalari lolagul, shabaki, seraftor anorgul, bodomcha, majnuntol atamalarida ko'plab uchraydi.

Tayanch tushunchalar

Ruta, chorsi, davra turunj, sharafa, la'li, panno, simmetrik, asimmetrik.

Savollar:

1. Namoyon naqshi turlarining nomlanishini bilasizmi?
2. Yakka va qo'sh band deganda nimani tushunasiz?
3. Islimiy, xandasiy va ramziy iboralar ma'nosini bilasizmi?
4. Simmetrik naqshlar deganda nimani tushinasiz?
5. Assimetrik naqshlar nima?

YAKKA VA QO'SH BANDLI NAQSH KOMPOZITSIYALARINI TUZISH

Naqsh kompozitsiyalarini yakka va qo'sh bandli novda elementlari ishtirokida tuziladi. Yangi naqsh tuzishda kompozitsiyaning dastlabki xomaki namunasi ishlanadi va u "naqsh chizgilari" deb ataladi. Bu chizgilar kompozitsiyaning rangsiz va pardozsiz ishlangan eskizdir.

Kompozitsiyaning mazmunan boy va chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasi, ramkasiga bog'liq. Kompozitsiya tuzishda dastlabki o'lcham aniqlangach naqshning asosiy ramkasi olinadi. Naqsh ramkalarini tuzishda elemenlar ko'rinishni yo'l aylana, chorsi va xokazo shakllarning ichiga

joylashtiriladi. Masalan, mehrob, lola, patnus, ishkom, aylana mehrob elementlarini olsak. Bu oddiy naqsh elementlarini bosqichma-bosqich yo`l, to`rtburchak va aylana kabi shakllar ichiga joylashtirib, kompozitsiyalarni quydagicha nomlashimiz mumkin:

mehrob ko`rinishidagi shakllar - "mehrob xoshiya", "mehrob patnus", "mehrob aylana"

lola ko`rinishidagi shakllar - "lola xoshiya", "lola patnus",

"lola

aylana".

patnus ko`rinishidagi shakllar - "patnus xoshiya", "oddiy patnus",

"patnus aylana"

ishkom ko`rinishidagi shakllar - "ishkom xoshiya", "ishkom padnus", "aylana ishkom"

"aylana" mehrob ko`rinishidagi shakllar - "aylana mehrob xoshiya",

"aylana mehrob patnus", "aylana mehrob doira" naqsh kompozitsiyalari

va boshkalar(rasm).

Yukorida aytib o`ttanimizdek, naqshlarni — shakl yasovchi elementlarning nomlari bilan atash mumkin. Masalan, "mehrob lola - ko`rinishi ifodalangan yo`l ichidagi naqsh shakli odatda "xoshiya naqshlar" deb atalganligi sababli "mehrob xoshiya" deb nomlanadi. To`rtburchak shaklidagi naqshlar patnusga o`xshash bo`lganligi sababli "mehrob patnus" shaklidagi naqsh kompozitsiyani tashkil etadi va shunday nomlanadi. Aylana -- gardish shaklidagi naqsh kompozitsiyasi esa "aylana mehrob" naqshi deya ataladi.

Mustaqil naqsh kompozitsiyalarini tuzishda mavjud mehrob ko`rinishidagi elementlarni yo`l, to`rtburchak va aylana shakllari ichida joylashtirish mashq qilib ko`riladi. Naqsh namunasini yakka va qo`sh bandlar yordamida chizish mumkin. Mehrob ko`rinishidagi shakllarga esa novda xarakatini kiritish orqali yangi naqsh kompozitsiyasini hosil kilishda lola guli elementlaridan ham foydalanish maksadga muvofiqdir. Bunda o`zgacha ko`rinishdagi naqsh nusxalari hosil bo`ladi. Navbatdagi chiziladigan naqsh elementlari "kurtak" bo`lib, to`ldiruvchi vazifasini o`taydi. Shunga ko`ra quydagi ko`rsatilgan naqsh namunalari to`rt bosqichda, to`rtta naqsh elementi asosida tuzilgan bo`lib, "lolali mehrob xoshiya", "lolali mehrob patnus" "lolali mehrob aylana" naqshlari deb ataladi.

Talabalar tushunchalarini boyitishda maxsus nashr etilgan naqqoshlikka oid kitoblar, naqsh to`plamlaridan tashqari kompozitsiya tuzish bosqichlari ko`rsatilgan suratlar yoki maxsus moslamalar katta ahamiyatga ega. Quydagi suratlarda ana shunday moslamalarning namunalari berilgan(rasm). Bu moslamalar yordamida talabalar tayyor naqsh kompozitsiyalarini qanday qilib yangi yo`lsimon xoshiya, kvadrat, doira, besh, olti, o`n ikki qirrali naqsh kompozitsiyalariga aylantirish mumkinligini qiska vaqt ichida tushunib olishlari mumkin. Buning uchun moslama ko`rsatilgan shaklda tayyorlab olinadi va naqsh namunalari ustiga

shunday joylashtiriladiki, bunda talabalar u yoki bu naqsh kompozitsiyasini darhol hosil bo'lganligini kuradilar. Natijada, o'zlariga yoqqan naqsh namunalaridan kerakli kompozitsiyalarni hosil qilishda ana shu moslamadan o'rinli foydalanishni o'rganadilar. Agarda ko'rgazmali qurol va naqsh namunalari katta o'lchamlarda bo'lsa, ulardan o'rinli foydalanish mumkin bo'ladi. Bunda katta o'lchamdagi naqsh namunasi doska yuzaga maxkamlab qo'yiladi va uning sirtiga rasmda ko'rsatilgan shakllardan birontasi magnit yordamida o'rnatiladi. Natijada o'quvchilar doira, kvadrat yoki shu kabi shaklga ega bo'lgan naqsh kompozitsiyalarini ko'radilar.

Istalgan naqsh elementlari asosida siz ham shunday naqsh kompozitsiyalarini tuzishni va chizishni mashq qiling. Berilgan namunalar tarkibidagi naqsh elementlarini boshqasi bilan almashtirib, o'zgacha naqsh tuzib ko'ring. Bunda qanday o'zgarishlar ro'y beradi? Yana qaysi naqsh kompozitsiyasiga o'zgartirishlar kiritish mumkin? Fikran naqsh kompozitsiyasi tarkibiga kiritilgan o'zgartirishlarni ko'z oldingizda gavdalanitiring. Bu o'z navbatida bo'lajak naqsh kompozitsiyasini qog'ozga to'g'ri joylashtirish hamda rang tuslarini tanlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Rasmda ko'rsatilgan ikki, uch xil naqsh elementlarini tanlang, ulardan mustaqil ravishda yo'lsimon, to'g'ri to'rtburchak va doira shaklidagi naqsh kompozitsiyalarini tuzishni mashq qiling.

Tayanch tushunchalari.

Xoshiya, eskiz, mehrob, gardish, magnit.

Savollar:

Naqsh chizgilari deb nimaga aytiladi?

Mehrob xoshiya atamasi nimani anglatadi?

Rang tuslarini qanday tallanadi?

Shakl yasovchi element deganda nimani tushunasiz.

Uy – ro'zg'or buyumlariga naqsh kompozitsiyasi tuzish.

Uy – ro'zg'or buyumlariga naqsh bezaklarini berish qadimdan rivojlangan. Uy – ro'zg'or buyumlari asosan yog'ochdan yasalgan bo'lib, ularga naqsh ishlash texnologiyasi uncha murakkab emas. Bezaklanuvchi har bir buyumning o'z bezatilish usullari, ishlov berishdagi o'ziga hos tartiblari bor. Buyumlarni naqshlash jarayonida bir necha amaliy bosqichlar bajariladi, buyumni jilvirlash, yuza sirtlariga gurund berish, naqsh kompozitsiyasini tushurish, ranglash, pardozlash va laklash.

Uy – ro'zg'or asosan qayin, qora qayin, qarag'ay, nok, yong'oq va boshqa yog'och turlaridan yasaladi. Yog'och buyumlarini yasayotganda ularni chiroyli shakli, foydalanishdagi qulayliklarini hisobga olinadi. Uy – ro'zg'or buyumlarining turlari juda ko'p bo'lib ulardan sabzi taxta, qoshiqlar, lagan, quticha, tuzdon, non idishi, xon taxta, kursi va boshqa sovg'abob buyumlari kiradi. (rasm)

Xalq ustalari bezagan uy – ro'zg'or buyumlari turli muzey va ko'rgazma zallarida namoyish etilib, kishilarga estetik zavq bag'ishlab kelmoqda va kundalik hayotimizda ham ishlatilmoqda.(rasm)

Uy - ro'zg'or buyumlarini naqshlash jarayonining eng murakkab bosqichlaridan biri buyum kompozitsiyasini tuzishdir. Turli uy ro'zg'or buyumlariga naqsh kompozitsiyalarini tuzish ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari hosil bo'lganidan so'ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin.

Mustaqil naqsh kompozitsiyalarini tuzishda buyum yoki yuza sirtini uning o'ziga hos o'lchamlarini aniqlab, naqsh kompozitsiyasini hayolan tanlab olinadi. Tasavvurga kelgan bu naqsh elementlari o'zgartirilib olingan yoki ilgari kuzatilgan naqsh bo'laklaridan bo'lishi ham mumkin. Kompozitsiya tuzishda ish tajriba, tusavvur fikr yuritish qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, shunchalik go'zal naqsh kompozitsiyalarini tuzish mumkin. (rasm).

Naqsh kompozitsiyalari 1, 2, 3, 4, va hakoza bo'laklar asosida tuzilib, uning nushasi mahsus usulda kerakli joylarga ko'chirib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar davomida naqqoshlar mehnatini engillashtirib kelgan. (rasm)

Kompozitsiya tuzishda dastlab to'rtidan bir bo'lak yuzaga naqsh shaklini o'ylab chizamiz. Bu dastlabki ramka shaklimiz yakka, ko'sh va bir necha band ko'rinishidan iborat bo'lishi mumkin. Patnus ko'rinishidagi shaklga bofta gajak elementini ulaymiz.(rasm) . Navbatdagi bosqich yakka yoki qo'sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo'lishi ham mumkin(rasm). Mashqlar davomida chiziqlar harakatining ravonligiga, shakl chiziqlarining qiyshiq yoki aniq holatida chizilmasligiga etibor beriladi.

Yakka band yo'lidan iborat tanob ayrisi shukufta elementi bo'g'lanadi.(rasm). Endi yuza bo'shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir biriga bog'lagan holda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shaklar bo'yicha harakatlantirilib chizib boriladi. Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir birlari bilan yahlit, uzviy bog'lanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, yani ulash natijasida kompozitsiya mazmuni tugal echimini topadi. Mavjud naqsh kompozitsiyasi padnus ko'rinishdagi naqshlar turiga hos bo'lganligi sababli "padnus islimi" deb ataladi(rasm).

Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro muttanosib hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir elementga alohida ishlov berilgan holda uning nusxasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yahlit naqsh tuziladi(rasm).

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda xalq amaliy san'atining boy madaniy merosidan mohirona foydalanish kerak. Tuzilayotgan naqsh kompozitsiyalarida ranglarning ochiqligi, yorqinligi va uyg'unligi, katta kichik yuzalarni to'g'ri taqsimlanishi naqshning yanada chiroylilashuvni ta'minlaydi. Kompozitsiya chizish jarayonida elementlarning o'zaro muttanosib joylashuvi, band elementlarini chiroyli va ravon chizish, elementlar joylashuvida uzoq yaqindan ko'rinishini yaxshi taminlash kerak.

Tayanch tushunchalar

Reja, qolib, islimi, muttanosib, sirt, nusha, gajak

Savollar:

Naqsh kompozitsiyasini tuzishda yuza sirtini nimasiga etibot beriladi?

Naqsh nushasi nimadan tashkil topadi?

Patnus islimi nimani anglatadi?

Naqsh kompozitsiyasi tuzilishining bosqichlarini ayting?

Naqsh nushalari qanday ko`paytiriladi?

Bino interer va ekstrerlariga kompozitsiya chizish

Binolarning interer va ekstrerlarni naqsh kompozitsiyalari bilan bezatishning o`ziga hos usullari bor. Intererni naqsh kompozitsiyalari bilan bezashda, honaning aniq o`lchamlari, yorug`likning roli rang koloriti, bezak turlarini o`rinli tanlash kabi masalalar asosiy o`rinni egallaydi. Xonaning o`lchamlari bo`yicha va shift yuzalariga naqsh kompozitsiyalarini chamalab, kichraytirib chiziladi. Tayyor bo`lgan kompozitsiya ahtasi haqiqiy kattalikda tayyorlanadi. Ekstrerlarni naqshlashda naqsh ishlanuvchi yuzalarni belgilab chiqiladi. Ekstrerlarning malum qisimlari ko`pincha girih va murakkab naqsh namunalari bilan naqshlanadi.

Ekstrer va intererlarni naqlashda quyidagi tartibga amal qilinadi.

binoning ichki va tashqi qisimlarini homaki naqshlarini
chizish

-ma'lum o`lchamda kichraytirib chizilgan interer va
ekstrerlarning izora va yuqori qisimlari va tashqi bezaluvchi.

- yuzalariga mos naqash namunalarni belgilash.

- hosil bo`lgan homaki eskizlarni haqiqiy kattalikdagi
rapportini chizish.

- tuzilgan naqsh namunalarining axtalarini tayyorlash.

O`zbek milliy binolarini naqshlashda ustalar har bir naqsh elementini jonli chiqishida, ona tabiatimiz go`zalligini ramziy mazmunlari yordamida tasvirlaydilar(rasm). Naqsh kompozitsiyalari qadimdan insoniyat ruhini ko`tarib kelgan. Bu hususida mashhur usta Shirin Murodov shunday degan edilar. "Naqsh kirgan uyga g`am – anduh kirmaydi". Halq ustalarining har bir naqsh kompozitsiyalariga etibor berar ekanmiz, naqsh elementlarining ravonligi, nisbati va uyg`unligini kuzatamiz (rasm).

Interer va ekstrerlarni naqshlanayotgan xonani foydalanishdagi maqsadi, munosib rang koloriti, naqsh uslublari va pardoiz turlariga alohida etibor beradilar. Binolar uchun tuziladigan naqsh kompozitsiyalarining ko`pdan ko`p turlari mavjud bo`lib, ular: hoshiya, ruta, namoyon, friz, turunj, munabbat, chorsi, burchak, gardish, mehrob va boshqalardir.

Binolarga naqsh kompozitsiyalari ishlashda, rang tuslarining ahamiyati katta. Qadimda milliy binolar to`q yashil – havo rang gammasida ishlangan.

Ustalar naqsh kompozitsiyalarini to'g'ridan – to'g'ri qo'lda chizib bezab kelishgan. Bunday naqsh turlariga hoshiya, ruta, yakka bandli namoyon va shiftlarning bolor vassalari misol bo'la oladi. Katta yuza qismlari qo'sh bandli naqshlar va girihlar mahsus tayyorlangan nusxa tushuruvchi axtalar yordamida bajarilgan.

Bino bezakchiligida eng ko'p qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalari nomoyon naqshlaridir. Namoyon naqshlari o'zbek uylarinig ayvon va mehmonhonalariiga ko'plab chizilgan. Namoyon naqshlari guldasta, anor, majnuntol, geometrik naqsh kompozitsiyalari va ramziy naqshlar ishtirokida tuziladi. Hozirda naqqosh ustalar milliy san'atimizning rivojlanishida qadimiy naqsh bezaklari elementlariga zamonaviy ruh berib, ulardan o'rinli foydalangan holda yangi naqsh kompozitsiyalarini yaratmoqdalar. Ayniqsa usta naqqosh, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Anvar Ilhomov zamonaviy binolarga o'zbek an'anaviy naqshlarni bog'lagan holda kompozitsiyalar yaratib ranglar uyg'unligi, mayinligi ularning asta - sekin o'zaro yumshoq bog'lanib o'tishini taminladi. Shuningdek u naqqoshlikda unitilayozgan kundan tehnikasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

Bino ekstreri va intererining xar bir memoriy qismlari o'ziga hos naqsh kompozitsiyalari bilan bezatilib kelinadi. Ularga asosan islimiy, geometrik va murakkab singari naqsh kompozitsiyalari qo'llanilgan. Bino ichki devorlari uch qisimga bo'linib, pastki qismi izora, o'rta qism va tepa friz hoshiya qismlariga bo'linib naqshlanadi. Devorning o'rta qismi namoyonlar friz qismi har hil geometrik va o'simliksimon naqshlar bilan bezatiladi. Interer devorlarini bezashda honaning balandligi, umumiy ko'rinish, yorug'lik tushushi va honaning turmushdagi o'mi hisobga olinadi. Intererining qaysi rang tusiga hos ravishda naqshlaning ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, naqqosh ijodida eng masuliyatli ishlardan biri naqsh kompozitsiyalarini yaratishdir.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ma'lum qonun qoidalarini o'z ichiga oladi:

- naqsh elementlarini nisbatini saqlash;
- tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;
- tanobdan gul barg va boshqa naqsh elementlarini o'sib chiqmasligi;
- o'lchamga mos naqsh kompozitsiyasini chizish va hakozi;

Tabiyat, atrof olamni rangsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, naqsh kompozitsiyalarni ham rang tuslarisiz to'laonli tasvirlash qiyin. Shuningdek, interer va ekstererlarni naqsh bezaklari bilan bezashda rangshunoslik qoidalariga amal qilish albatta muhimdir. Interer va ekstererlarning naqshlashda dast avval naqshning zamini ranglanadi. Rang tuslari hona devor bezaklariga xam ohang ravishda olinadi. So'ngra oraliq shakl yuzalari gul, novda, shukufta, barg elementlariga rang beriladi. Naqsh kompozitsiyalari ranglab olingandan so'ng, siyoh – qalam, targ'il usulida pardozi beriladi.

Tayanch tushinchalar

Interer, eksterer, kolorit, yakka band

Savollar.

1. Bino naqshlari nomalarini ayting.
2. Rang koloriti deganda nimani tushunasiz?
3. Binolarni naqshlash tartibini bilasizmi?
4. Namoyon so`zi nimani anglatadi?
5. Usta Anvar Ilhomov qaysi naqqoshlik maktabining nomoyondasi ?

Kundal texnikasi haqida nimalarni bilasiz ?

Mavzular bo`yicha testlar

1. Naqsh kanday ma'noni anglatadi?
 - a) geometrik shakllardan tuzilgan naqsh.
 - b) yo`l ichidagi naqsh
 - v) arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildiradi, turli shakllarining ma'lum tartibda takrorlanishidan xosil qilingan bezak.
 - g) lotincha "ornament" - bezak degan ma'noni anglatadi.
 - d) a va g qatorda to`g`ri ko`rsatilgan.
2. Namoyon naqshini ta'rifi qaysi banda keltirilgan?
 - a) geometrik (xandasaviy) naqsh.
 - b) doira shaklidagi naqsh.
 - v) xoshiya naqshi.
 - g) Ko`rinish, manzara demakdir. U mustaqil naqsh bo`lib, islamiy, xandasaviy, gulli girix turlari mavjud.
 - d) O`simliksimon naqsh.
3. Tanob nima?
 - a) naqsh kompozitsiyasining tuzilishi.
 - b) naqshning ramziy ma'nolari nomi.
 - v) naqsh kompozitsiyasining asosiy yo`l chizig`i.
 - g) naqshing gul elementlari.
 - d) shkufta elementining o`zgacha nomi.
4. Naqqoshlikda kontrast nima?
 - a) stilizatsiya so`zining o`zgacha nomi.
 - b) kompozitsiya so`zining o`zgacha nomi.
 - v) mustaqil naqsh tuzish.
 - g) namoyon naqshning o`zgacha nomi.
 - d) ranglar qarama-qarshiligi.
5. Stilizatsiya so`zining ta'rifi qaysi qatorda keltirilgan?
 - a) naqshga shakl beruvchi chiziq.
 - b) nomuttanosiblik.
 - v) narsaning rasmi, rangi va shaklini dekorativ tarzda utmumlashtirish.

- g) naqsh elementlarining takrorlanishi.
- d) b va g qatordagi javoblar to'g'ri.

6. Naqshlarni ranglashda qaysi bo'yoq turidan ko'proq ishlatiladi ?

- a) moy buyoq, tempera.
- b) guash, akvarel.
- v) mineral bo'yoqlar.
- g) guash.
- d) emulsiya buyog'i.

7. girixning ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) oddiy elementlardan tuzilgan islmiy naqsh.
- b) navo naqsh kompozitsiyasi.
- v) tugun degan ma'noni anglatib, geometrik naqshdir.
- g) a va b qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.
- d) yul ichidagi naqsh kompozitsiyasi.

8. Bofta nima?

- a) geometrik naqsh.
- b) to'qilgan shakldagi islmiy naqsh elementi.
- v) navo naqshi.
- g) rang tusi.
- d) xoshiya naqshi.

9. Girix naqsh qaerda keng tarqalgan?

- a) Evropada.
- b) O'rta Osiyoda.
- v) Turkiya, Pokiston.
- g) Ispaniya va Yaponiya.
- d) O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda.

10 Bodom guli qanday naqsh turiga kiradi?

- a) turunj naqshi.
- b) namoyon naqshi.
- v) girix naqshi.
- g) bodom shakli takrorlanishidan xosil bo'lgan sodda islmiy naqsh turi.
- d) gulli girix naqshi.

11. Shobarg nima?

- a) novda va tanoblarni bog'lovchi naqsh elementi.
- b) islmiy naqsh elementi bo'lib, barglar ichida eng kattasi.
- v) geometrik naqsh.
- g) elimli bo'yoq turi.
- d) unvonli yozuv.

12. Interer so'zi nimani anglatadi?

- a) ma'lum tartibda joylashtirish.
- b) naqsh namunasi.
- v) mos degan ma'noni anglatadi.

- g) ranglash degan ma'noni anglatadi.
d) binoning ichki qismi ko`rinishi.
13. Rapport so`zining ta'rifini keltiring.
a) naqshning asosiy qismi.
b) doira shaklidagi naqsh.
v) rang tusi.
g) Naqsh taqsimi bo`lib, naqshning ma'lum bir shaklda takrorlanuvchi qismidir.
d) ranglar uyg'unligi.
14. O`zbek xalq amaliy san'ati turlarini sanab bering.
a) Naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi, kulolchilik, zardo`zlik.
b) rangtasvir, qalamtasvir, grafika.
v) Xaykaltaroshlik, mozaika, rasm.
g) ganchkorlik, yogoch o`ymakorligi, grafika.
d) b va v bandlarda javob to`g`ri ko`rsatilgan.
15. Axta nima?
a) nusxa ko`chirish uchun ishlatiladigan, naqsh nusxasi teshilgan shaffof qog`oz.
b) elimli bo`yoq turi.
v) doira shaklidagi naqsh.
g) naqshni tushirish uchun ishlatiladigan qopa yog`och kukuni.
d) unvonli yozuv.
16. Naqshni bo`yash (turlash) nimadan boshlanadi?
a) gul va barg elementlarini bo`yashdan.
b) band elementlarini bo`yashdan.
v) shkifta va bofta elementlarini bo`yashdan.
g) a va b qatorlarida to`g`ri ko`rsatilgan.
d) zaminni bo`yashdan.
17. Targ`il iborasining ta'rifini ko`rsating.
a) naqshlarni zarhal bilan ishlash.
b) kichik mo`yqalam bilan naqsh chegarasini chizib chiqish.
v) naqshning asosiy qismini chizish.
g) naqqoshlikda taroq tishlarisimon pardoz berishning bir turi.
d) o`simliksimon naqsh.
18. Amaliy san'atga oid iboralar qaysi qatorda joylashgan?
a) zardo`z, kulol, kashtachi, o`ymakor, naqqosh.
b) xaykal, portret, manzara.
v) relef, stek, karkas.
g) interer, eksterer, dekoratsiya.
d) retush, sous, pastel, koshin, kigiz.
19. Naqshlanadigan buyumni qaysi yog`ochdan yasash maqsadga muvofiqdir?
a) o`rik, yong`oq, tol.

- b) qayin, terak, olma.
 v) terak, qarag`ay, o`rik.
 g) a va b bandlarda to`g`ri ko`rsatilgan.
 d) qayin, qora qayin, terak, qaragay, nok, yong`oq.
20. Madoxilning ta'rifini keltiring.
 a) navo naqshi.
 b) xandasaviy naqsh.
 v) doira shaklidagi naqsh.
 g) chapu-rost takrorlanuvchi lolasimon naqsh turi.
 d) xoshiya naqshi.
21. Naqqoshlikda qaysi hayvon yunglaridan tayyorlangan muyqalamlar ishlatiladi?
 a) echki, quyon.
 b) bo`rsiq, suvsar, olmaxon.
 v) quy, andatra.
 g) suvsar, echki.
 d) a va b qatorda to`g`ri ko`rsatilgan.
22. Nil obi rangi qaysi ranglardan hosil qilinadi?
 a) qora va qizil.
 b) yashil va oq.
 v) qizil va sariq.
 g) qizil va ko`k.
 d) oq va ko`k.
23. Qanday naqsh turlarini bilasiz?
 a) zamin, shafaq
 b) shobarg, oygul, mexrob.
 v) navo, turunj, namoyon, girix, islimi.
 g) v qatorda to`g`ri ko`rsatilgan.
 d) simmetrik va assimetrik.
24. Ritm iborasining ta'rifi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?
 a) o`lchovlarning bir-biriga mos kelishi (mutanosiblik).
 b) naqsh, bezak elementlarining ma'lum tartibda bir tekisda takrorlanishi.
 v) ranglar karama-qarshiligi.
 g) rang tusi.
 d) narsaning rasmi, rangi va shaklini dekorativ tarzda umumlashtirish.
25. Qaysi voha naqshlari o`zining nafisligi, ranglarining bir-biriga asta-sekin o`tishi, aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi bilan ajralib turadi?
 a) Toshkent naqshlar.
 b) Xiva naqshi.
 v) Buxoro va Samarkand naqshlari.
 g) Samarkand, Toshkent, Farg`ona naqshlari.

d) Buxoro, Farqona naqshlari.

26. Maxmud Turaev qaysi naqqoshlik maktabining namoyondasi?

a) Buxoro.

b) Rishton.

v) Toshkent.

g) Qo`qon.

d) Samarkand.

27. Oddiy naqsh namunalari nechta?

a) 6 ta.

b) 10 ta.

v) 9 ta.

g)

8

ta.

A) 7 ta.

28. Girixning ta'rifi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan ?

a) oddiy elementlardan tuzilgan islmiy naqsh.

b) navo naqsh kompozitsiyasi.

v) tugun degan ma'noni anglatuvchi geometrik naqsh.

g) v qatorda to`g`ri ko`rsatilgan.

d) yo`l ichidagi naqsh kompozitsiyasi.

29. Shpaklyovka nima?

a) rang turlaridan biri.

b) jilvir qog`oz

v) yuzalarni tekislovchi xamirsimon qorishma.

g) naqqoshlikda ishlatiladigan belcha.

d) kompozitsiya so`zining boshqa ma'nosi.

30. Barg elementlariga nimalar kiradi?

a) shobarg, shox barg.

b) bofta, margula.

v) marg`ula, paxta gul.

g) lola, yaproq.

d) shobarg, bofta.

31. Naqqoshlikda ritm nima?

a) naqsh elementlarining davriy takrorlanishi.

b) naqshning bir koloritda bo`lishi.

v) naqsh kontrast ranglardan iborat bo`lishi.

g) naqsh elementlarining zichligi.

d) gullar odatdagidan kichikroq chizilishi.

32. Gul elementlariga nimalar kiradi?

a) oygul, novda, barg.

b) tanob, bafta.

v) chinnigul, lolagul, barg.

g) oygul, lolagul, chinnigul, bodomgul.

d) bodomgul, novda.

33. Mehrob guli qaysi gulda ishtirok etgan?

- a) 8
- b) 5
- v) 1
- g)
- d) 3

34. Shkuftali islami naqshi nechanchi gul?

- a) 9
- b) 8
- v) 6
- g) 7
- d) 10

35. Pardozi mo'yqalamining raqami qaysi?

- a) 1
- b) 2
- v) 3
- g) 5
- d) A va V.

36. Shobarg elementlari qaysi?

- a) oygul, novda, barg.
- b) tanob, bafta. v) chinnigul, lolagul, barg.
- g) barg, shobarg, shoxbarg.
- d) bodomgul, novda.

Javoblar

Savol

Javob

Savol

Javob

Savol

Javob

1

v

13

g

25

a

2

g

14

a

26

v

3

v

15

a

27

b

4

d

16

d

28

v

5

v

17

b

29

v

6

b

18

a

30

a

7

v

19

d

31

a

8

b

20
g
32
g

9
d
21
b
33
a

10
g
22
d
34
d

11
d
23
v
35
d

10
d
24
b
36
g

Atamalarning izohli lug`ati

Anor –o`simliksimon naqsh elementi. Naqqoshlik, kulolchilik, misgarlik, gilamdo`zlik, kashtachilik, zardo`zlik va boshqalarda juda ko`p ishlatiladi. U to`qchilik – to`kin sochinlik ramzidagi manoga ega. Anorgul qadimdan ishlatilib kelayotgan naqsh bo`lib, Farg`ona naqshlarida ko`p uchraydi. Anor ikki hil tabiiy, yani tabiatda qanday bo`lsa shunday yoki stillashtirilgan usulda tasvirlanadi.

Axta-naqsh yoki shaffof (Kalka) qog`ozga chizib, chiziq yo`llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlagan andoza. Xorazimda uni uli, Buxorada so`zan deb yuritiladi.

Band-novda o`simlik bandi islmiy naqsh elementi bo`lib, u gullarning novdasi hisoblanadi. Band tabiatdagi daraxt yoki o`simlik novdasining stillashtirib olingan tasviridir. Har bir naqsh elementi singari bandning ham kompozitsiyada qo`llanishning o`ziga hos usillari bor. Masalan: bandning aniq bir o`lchami bo`lishi, uning kopozittsiyada barglar va gullarga nisbatan joylashishi, naqshda gullar, barglar va tanoblarning tagidan o`tishi va xokazo.

Barg-o`simliksimon naqsh elementi bo`lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o`simlik barglaridan umumlashtirib olingan tasvirdir. Barglarning qo`yidagi turlari mavjud: shobarg (shox barg), o`simliksimon naqsh elementlaridan biri bo`lib, barglar ichda eng kattasi hisoblanadi. “Qo`shbarg” ikki bargdan iborat bo`lgan o`simliksimon naqsh elementidirko`pbarg bir nechta barglardan tashkil topgan o`simliksimon naqsh elementi. Barg naqsh kompozitsiyasida to`liruvchi va husn beruvchi element bo`lib, tuzilishiga ko`ra oddiy va murakkabga bo`linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi.

Girix-forcha "chigal tugun"degan ma'noni anglatadi. Geometrik naqsh turlaridan biri bo`lib to`rt burchak , uch burchak, boshqa ko`p burchaklardan tashkil topadi .

Gul - o`simliksimon naqsh elementi bo`lib , tabiatdagi gullarni naqqoshlar tomonidan umumlashtirib olingan tasviridir. Gullarning har-xil turlari bo`lib

ularning o'ziga xos nomlari bor. Chunonchi, uchg'esh yaproqli oy gul, bargli oygul, gunafsha, gultojxo'roz va boshqalar. Gullar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkabga bo'linadi. Murakkab gullarga ko'p bargli oygul, oddiy gullarga esa lola gul, paxta gul kiradi.

Zamaska-taxta yoriqlariga va deraza romlariga yopishtiriladigan xamirsimon qo'rinishdagi qorishma.

Zamin-o'ymakorlik va naqqoshlikdagi naqshli bezakning tagiga aytiladi.

Lola-naqsh kompozitsiyasida uchrovchi islamiy naqsh elementi.

Lok-surtilganda qotib, yaltiroq parda hosil qiluvchi organik moddalar aralashmasi.

Madoxili-arabcha so'z bo'lib, ostona, kirish, eshik ma'nosini bildiradi. Madoxili ko'rinishi jixatdan hilma-xil bo'lib g'uncha, lola, uch barg va boshqa shakllardan iborat bo'ladi. Madoxili naqshlar, yog'och, mis, o'ymakorligi, naqqoshlikda, kashtado'zlikda keng tarqalgan.

Obi- forscha suv degan manoni anglatadi. Obi naqsh chetiga tutashgan joylarni ajratib turuvchi chiziq. Obini naqsh elementlari kesib o'tishi mumkin emas.

Oygul –bir nechta yaproqli moychechak shaklidagi naqsh elementi bo'lib uning yaprog'ini, soniga qarab uch yaproqli oygul , to'rt yaprokli oygul deb nomlanadi. U o'simliksimon naqsh elementi. Oygulni naqqoshlar baxt -iqbol ramzi tariqasida qo'llab kelganlar.

Rang- biror narsani bo'yogi , tusi. Asosiy ranglarga sariq, qizil va zangori ranglar kiradi. Bularning qo'shilishidan yashil, ko'k, binafsha, zarg'aldoq, jigarrang kabi ranglar hosil bo'ladi. Ranglar asosan ikki turga, yani iliq ranglar(qizil ,sariq zarg'aldok, sarg'ish yashil) va sovuq ranglar (zangori ko'kish yashil, binafsha, xavo rang kabilar) ga bo'linadi. Ranglar halk amaliy san'atda turlarida muhim rol o'ynaydi.

Ranglar vazminligi-ranglarning kishida og'ir va engil taassurotlar uyg'otuvchi xususiyatidir.Ranglar garmoniyasi-ranglarning bir-birga muvofiq tushishi Tenglik-ranglar o'zaro muvofiqlashuvi qonuni, to'ldiruvchi va qarama-qarshi ranglar misolida ko'rish mumkin.

Stilizatsiya-umumlashtirish. Tabiatda gul, novda, barg, qush, xayvon va boshqalarni naqqosh tamonidan umumlashtirib tasvirlashi.

Turunj-arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. O'rta Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lib, qadimdan ishlatilib kelinadi.

Adabiyotlar ro`yhati

1. Azimov I. O`zbekiton naqshu nigorlari. T. : G`. G`ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987 yil.
2. Bulatov S. S., Ashirova M. O. Amaliy san'at qisqacha lug`ati. Qomuslar bosh tahririyati. T.: 1992 yil.
3. Bulatov S. S. O`zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: Mehnat 1991 y.
4. Bulatov S. S. O`zbek xalq amaliy bezak san'ati atamalarining izohli lug`ati. T: 1990 yil.
5. Zohidov P. Sh. Ferganskaya rospis T.: Gost. izdat. xud. lit. 1960
6. Mirzaahmedov M. A. Boshlang`ich badiiy naqsh ishlash metodikasi T.: "O`qituvchi", 1976.
7. Majidov J. Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar. T.: "O`qituvchi" 1983
8. Mirzaahmedov M. A. Materiallarga badiiy ishlov berish. T.: "O`qituvchi" 1986
9. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi T.: "Fan", 1977
10. Egamov X. Bo`yoqlar bilan ishlash T.: "O`qituvchi" 1981
11. Qosimov Q. Naqqoshlik. T.: "O`qituvchi" 1990 y.
12. Qosimov Q. Naqqoshlik. T.: "O`qituvchi" 1990 y.

Mundarija

Soʻz boshi.....	
Naqqoshlik san'atida kompozitsiyaning tutgan oʻrni.....	
Naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari.....	
Naqsh turlari va uning oʻziga xosligi	
Turli geometrik shakllarga naqsh kompozitsiyalarini chizish....	
Xalq ustalari ijodidan nusxa koʻchirish. “Namoyon” naqshi.....	
Yakka va qoʻsh bandli naqsh kompozitsiyalarini tuzish.....	
Uy – roʻzgʻor buyumlariga naqsh kompozitsiyasi tuzish.....	
Bino interer va ekstererlariga kompozitsiya chizish.....	
Mavzular boʻyicha testlar.....	
Atamalarning izohli lugʻati.....	
Naqsh kompozitsiyalaridan namunalar.....	
Adabiyotlar roʻyxati.....	